

“Polimerlar haqidagi fanning zamonaviy muammolari” o‘zbek-qozoq Simpoziumi ochilishi

2018-yilning 28-sentabr kuni O‘zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti hamda Qozog‘iston Respublikasi Olmaota shahrida joylashgan “A.B. Bekturov nomidagi kimyo fanlari instituti” Aksionerlik jamiyati bilan hamkorlikda “Polimerlar haqidagi fanning zamonaviy muammolari” mavzusida o‘zbek-qozoq Simpoziumi ochilishi bo‘lib o‘tdi. Tadbirni O‘zR FA vitse-prezidenti B.T.Ibragimov ochib berdi.



Mazkur ilmiy forumda polimerlar haqidagi fan sohasida faoliyat olib borayotgan O‘zbekiston va Qozog‘istonning yetakchi olimlari ishtirok etdilar. Simpozium Qozog‘istonda O‘zbekiston yili deb e‘lon etilganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 27 yilligiga bag‘ishlab tashkil etildi.





Simpozium polimerlar haqidagi nanofan sohasida O'zbekiston va Qozog'iston olimlari yutuqlari, polimerlarni olish, qayta ishlash va qo'llash borasida ish yuritayotgan korxonalar, kompaniyalarning ilmiy ishlanmalarga bo'lgan ehtiyojlari bilan tanishtirish, ikki davlat olimlarining fan, ta'lim va tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishda chambarchas, o'zaro manfaatli va samarali hamkorlik qilishlarini ta'minlashda tizimli yondashuvlarni shakllantirishga qaratilgan.